XALQ DEPUTATLARI IZBOSKAN TUMAN KENGASHI
QARORI

2023 - yil 4 - avgust VI-44-52-1-22-K/23 Izboskan tumani hokimligi

Xalq deputatlari Izboskan tumani Kengashining navbatdagi qirq beshinchi sessiyasini chaqirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN

1. Xalq deputatlari Izboskan tumani Kengashining qirq beshinchi sessiyasi 2023 yil 8 avgust kuni soat 10:00 ga chaqirilsin.

2. Sessiya kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

2.1. Izboskan tumani hokimi, tuman prokurori, tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i sektorlarida 2023 yil 2-choragida amalga oshirilgan ishlari haqidagi hisobotlari to‘g‘risida.

2.2. Izboskan tuman prokurorining 2023 yil 6 oyida “Qonuniylik ahvoli hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish holati to‘g‘risida”gi hisoboti to‘g‘risida.

2.3. Tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i M.Boltevning “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida tuman ichki ishlar bo‘limi tomonidan 2023 yil 6 oy yakunlari bo‘yicha olib borilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti to‘g‘risida.

2.4. Izboskan tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari Sh.Qodirovning hamda 1-son IIB Huquq tartibot maskani boshlig‘i

D.Usmonov 2023 yilning ikkinchi choragida “Jamoat tartibini saqlash” hamda “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida olib borilgan ishlar to‘g‘risida”gi hisoboti to‘g‘risida.

2.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Izboskan tumanidagi Xalq qabulxonasining hokim yordamchilari faoliyatining natijadorligi hamda sektorlar va xududdagi tashkilotlar rahbarlarining aholi murojaatlari va muammolari bilan ishlash xolati yuzasidan axboroti to‘g‘risida.

2.6. Majburiy ijro byurosi Izboskan tuman bo‘limi tomonidan 2023 yil 6 oylik faoliyati yuzasidan xisoboti to‘g‘risida.

2.7. Xalq deputatlari Izboskan tumani Kengashining Reglamenti va doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida.

2.9. Yoshlar ishlari Agentligi Izboskan tuman bo‘limi tomonidan 2023 yil 6 oylik faoliyati yuzasidan xisoboti to‘g‘risida.

2.10. Izboskan tumani maxalliy budjet daromadlari bazasini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar natijadorligi to‘g‘risida.

2.11. Boshqa masalalar

3. Sessiyaga tuman hokimining o‘rinbosarlari, tuman hokimligi guruh va bo‘lim rahbarlari, viloyat va tuman Kyengashi deputatlari, sektor rahbarlari, tuman tashkilot, muassasa rahbarlari, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, profilaktika inspektorlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etilsin.

4. Xalq deputatlari Izboskan tumani Kengashining qirq beshinchi sessiyasini tartibli o‘tkazish tuman hokimligi tashkiliy-nazorat guruhi hamda tuman Kengashi kotibiyati zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Ismoilov**